

CHAKANA SAVDO
TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo aylanmasi **5026,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **15,1 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **868,0** mlrd. so'mni (**49,8 %** ga oshdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4158,3** mlrd. so'mni (**9,8 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **874,0** mlrd. so'mni (**17,4 %** ga oshdi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5026,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **15,1 %** ga oshdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **82,7 %** va yirik korxonalar hissasiga **17,3 %** to'g'ri keldi.

ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shaxri **26,4 %** ulush bilan **1329,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Jizzax sh
1329,0

Zomin
658,8

G'allaorol
336,3

Paxtakor
171,1

Mirzacho'l
117,5


Arnasoy
90,6

ENG QUYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **0,9 %** ulush bilan **44,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda

JIZZAX VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2022- yil yanvar-iyun



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	2021- yil Yanvar-iyun	2022- yil Yanvar-iyun

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, **4158,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **9,8 %** ga oshdi. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **82,7 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,7 %), Arnasoy (98,8 %), Zafarobod (98,6 %), Yangiobod (98,6 %), G'allaorol (96,6 %), Forish (99,3 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.







**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .



Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalarlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorl ik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	5026,3	115,1	868,0	149,8	4158,3	109,8
Jizzax sh.	1329,0	110,9	119,2	90,1	1209,7	113,5
tumanlar:						
Arnasoy	91,0	105,8	1,0	104,8	89,9	105,8
Baxmal	1006,0	145,9	668,7	169,4	337,3	114,4
G'allaorol	336,3	109,2	11,4	154,0	324,9	108,1
Sharof Rashidov	744,8	107,5	2,0	209,6	742,8	107,3
Do'stlik	141,8	109,7	4,0	85,8	137,8	110,6
Zomin	658,8	109,4	52,6	252,2	606,2	104,3
Zarbdor	161,1	108,8	1,1	28,6	160,0	110,9
Mirzacho'l	117,5	110,5	0,8	26,0	116,7	113,0
Zafarobod	71,6	109,8	1,0	89,7	70,6	110,1
Paxtakor	171,1	110,1	4,4	86,3	166,7	110,9
Forish	152,7	106,4	1,1	30,9	151,7	108,2
Yangiobod	44,6	107,9	0,6	79,5	44,0	108,5

CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **49,8 %** ga oshdi va **868,0** mlrd. soʻmni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **17,3 %** ulushiga toʻgʻri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga koʻra, **4158,3** mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 9,8 % ga oshdi. Viloyat miyisosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **82,7 %** ni tashkil etdi.


CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyeklari

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyeklarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,8%), Arnasoy (98,8 %), Zafarobod (98,6 %), Yangiobod (98,6 %), G'allaorol (96,6 %), Forish (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 17,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (9,0 %), Zomin (8,0 %), Baxmal (64,5 %) va Do'stlik (2,9 %) tumanlarida kuzatildi.



2022-yil yanvar-iyun oylari holatiga ko'ra o'ttacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3465,0** ming so'm (2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **112,5 %** ga oshdi), hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**7065,3** ming so'm), Baxmal (**6137,9** ming so'm), Zomin (**3825,8** ming so'm) va Sharof Rashidov (**3209,0** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLO JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




	Hajm, ming so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Jizzax viyoyati	3 465,0	112,5
Jizzax sh.	7 065,3	107,0
tumanlar:		
Arnasoy	1 915,1	104,0
Baxmal	6 137,9	142,6
G'allaorol	1 870,2	106,8
Sharof Rashidov	3 209,0	105,5
Do'stlik	2 088,8	108,0
Zomin	3 825,8	106,7
Zarbdor	1 772,1	106,1
Mirzacho'l	2 188,2	108,6
Zafarobod	1 382,3	107,7
Paxtakor	2 196,2	107,4
Forish	1 596,0	104,6
Yangiobod	1 533,5	106,4

UYUSHMAGAN SAVDO
TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib, foizda




Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



Tuzlamalar



125,5
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



19,7
mlrd. so'm

Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)



40,8
mlrd. so'm

Non va non
mahsulotlari



19,2
mlrd. so'm



29,5
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari



73,1
mlrd. so'm

Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar



13,0
mlrd. so'm

Ziravorlar



30,2
mlrd. so'm

Tovuq go'shti




2,8
mlrd. so'm

Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

2022-yilning yanvar-iyun oyida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 405,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (125,5 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI


2022-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **468,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosи **311,1** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **146,2** mlrd. so'mni, otlar **9,2** mlrd. so'mni, parrandalar **1,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 % ni tashkil etib, 103,5 mlrd. so'mga yetdi va 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 8,0 % ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mln. so'm	2022- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	103 547,4	108,0	100 857,0	108,1
Jizzax sh.	48 832,8	103,7	48 279,7	103,8
tumanlar:				
Arnasoy	627,4	93,7	529,2	92,8
Baxmal	2 497,2	141,7	2 203,8	148,8
G'allaorol	6 076,8	103,5	5 830,3	103,4
Sh. Rashidov	18 330,6	107,8	17 942,6	107,9
Do'stlik	3 836,3	117,7	3 692,1	118,1
Zomin	7 328,3	111,4	7 043,5	111,8
Zarbdor	3 442,3	116,3	3 316,1	116,8
Mirzacho'l	3 858,2	103,4	3 740,1	103,4
Zafarobod	1 691,3	198,7	1 592,3	210,4
Paxtakor	3 392,4	109,1	3 246,1	109,2
Forish	2 255,1	94,0	2 105,2	93,3
Yangiobod	1 378,7	236,8	1 335,9	246,8

ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxona

Kichik korxona

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo	1139,4 mld. so'm, 100 %
Yirik korxonalar	253,2 mld. so'm, 22,2 %
Kichik korxonalar	886,2 mld. so'm, 77,8%

Eng yuqori ulushga ega hududlar



Sharof Rashidov

Zomin


Baxmal

Jizzax shahar

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Paxtakor (**510,9%**) va Arnasoy (**160,3 %**) tumanlarida kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1139,4	105,1	253,2	87,9	886,2	111,3
Jizzax sh.	568,1	93,8	69,2	45,8	498,9	109,8
tumanlar:					0,0	
Arnasoy	3,0	160,3	0,01	55,4	3,0	162,6
Baxmal	120,1	127,4	94,3	124,6	25,8	138,5
G'allaorol	38,5	136,5	0,1	80,9	38,3	136,8
Sh. Rashidov	75,9	128,1	0,3	535,5	75,6	127,7
Do'stlik	100,4	92,4	48,6	80,5	51,8	107,1
Zomin	98,6	97,9	0,01	62,6	98,6	97,9
Zarbdor	15,7	117,6	0,01	65,1	15,7	117,7
Mirzacho'l	3,7	140,6	0,1	90,6	3,6	142,5
Zafarobod	8,2	114,4	0,01	5,1	8,2	117,3
Paxtakor	50,6	510,9	40,3	16714,7	10,3	106,3
Forish	48,8	101,5	0,2	80,3	48,5	101,6
Yangiobod	7,9	156,4	0,01	32,0	7,8	157,7

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Mikrofirma va kichik korxonalar	2021- yil Yanvar-iyun	2022- yil Yanvar-iyun

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, **886,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **11,3 %** ga oshdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **77,8 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Zomin (**99,9 %**), Yangiobod (**99,8 %**), G'allaorol (**99,7 %**), Forish (**99,5 %**), Sharof Rashidov (**99,6 %**) tumanlarida yuqori bo'lgan.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:72-221-51-26